

ОТ СО‘З TURKUMINING YASALISH USULLARI

Usmonova Odina Siddikovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik

kafedrası o‘qituvchisi filologiya fanlari

bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy

maslahatchi

Hoshimova Gulhayo Zohidjon qizi

ADCHTI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada otlarning yasalish usullari haqida so‘z boradi. Har bir usul misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ot, affiksatsiya, kompozitsiya, abreviatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы словообразования имён существительных. Каждый способ анализируется с помощью примеров.

Ключевые слова: существительное, аффиксация, композиция, аббревиация.

Annotation: This article the methods of noun formation. Each method is analyzed using examples.

Keywords: noun, affixation, composition, abbreviation.

Tilshunoslikning morfologiya bo‘limi orqali so‘z turkumlarini o‘rganib boramiz. So‘z turkumlari ham o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linib, ulardan eng ko‘p ishlatiladigani mustaqil so‘z turkumlari hisoblanadi. Morfologiya bo‘limida biz umumiy tushunchalarga ega bo‘lamiz. Ot - mustaqil so‘z turkumlaridan biri. U boshqa

turkumlardan bir necha belgi-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) ot yasalish xususiyatiga ega: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog‘bon, oshpaz, Mirzacho‘l;
- 2) son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega: bola — bolalar, daftar—daftarlar;
- 3) egalik ko‘rsatkichiga ega: otam, otang, otasi — otamiz, otangiz, otalari;
- 4) kelishik shakllari bilan o‘zgaradi: maktab, maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan;
- 5) gapda barcha gap bo‘laklari vazifasida keladi.

So‘z yasalishi hodisasi mustaqil so‘z turkumlariga xos bo‘lib, bu hodisa ot, sifat, fe‘l, ravish turkumlari uchun xarakterlidir. Mustaqil so‘zlardan son va olmoshlar so‘z yasalish tizimiga ega emas. Chunki son va olmosh so‘z yasash usullari orqali boshqa turkumga mansub so‘zlardan yasalmaydi. Biroq bu turkumga mansub so‘zlar fe‘l, ravish va qisman ot yasalishida ishtirok etadi. Otlar son va olmosh so‘z yasash usullari orqali boshqa turkumga mansub so‘zlardan yasalmaydi, otning funksional shakllari mavjud, qo‘shimchalar qo‘shish yoxud ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo‘ladi. Yasama otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo‘llari bilan yasaladi.¹ Affiksatsiya ot yasashdagi eng mahsuldor usul bo‘lib, uning yordamida:

- shaxs otlari (bo‘yoqchi, ishchi, maktabdosh, zargar, sholikor, saroybon, chorvador, tilshunos, etikdo‘z, oshpaz, aravakash, kaptarboz, kitobxon);
- narsa-qurol otlari (ochqich, o‘sma, to‘plam, kurak, qirindi, ekin, kekirdak, suyunchi, tuzdon);

¹ Abduaziz Rajabov – “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Nashriyot: “O‘qituvchi”, Toshkent, 2006-yil. Ot yasalishi haqida 120–140-b.

- o‘rin-joy otlari (bodomzor, O‘zbekiston, qarorgoh, ishxona, o‘tloq, Paxtaobod);

- mavhum ma’noli otlar (yaxshilik, paxtachilik, ishonch, yig‘ilish, radiolashtirish, odamgarchilik).

Ot yasashining kompozitsiya usuli — bu ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik birliklarning qo‘shilishi orqali yangi ma’noga ega bo‘lgan ot yasash usulidir. Bu usulda hosil bo‘lgan otlar qo‘shma otlar deb ataladi. Kompozitsiya usulining xususiyatlari:

1. Kamida ikki so‘zning birikishi orqali hosil bo‘ladi.
2. Yangi ot ko‘pincha birdaniga bir butun ma’noni anglatadi.
3. Odatda bu otlar qo‘shib yoziladi yoki defis bilan ajratiladi.²

Shuni esda tutish kerakki, bu hodisa har xil so‘z turkumlarining birikuvidan ham hosil bo‘lishi mumkin.

bashik+tebratar=bashiktebratar (ot+fe‘l)

temir+yo‘l=temiryo‘l (ot+ot)

Otlar yana abbreviatsiya usuli bilan ham yasaladi. Abbreviatsiya — bu so‘z yasash usuli bo‘lib, unda bir nechta so‘zning bosh harflari, bo‘g‘inlari yoki qismlari olib qasqartma so‘z yaratiladi. Bu orqali yangi otlar hosil bo‘ladi. Abbreviatsiya usulining asosiy turlari:

1. Bosh harflar orqali qisqartma: Bu usulda har bir so‘zning birinchi harfi olinadi va birlashtiriladi.

BMT — Birlashgan Millatlar Tashkiloti

O‘zbekiston FA — O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi

² “O‘zbek tilining grammatikasi” (2 jildlik, 1-jild – Morfologiya) Tuzuvchi: G‘.G‘. G‘ulomov Nashriyot: “Fan”, Toshkent, 1976-yil Sahifalar: 202–230-b.

OAV — ommaviy axborot vositalari

Bu qisqartmalarning har biri — yangi ot sifatida ishlatiladi.

2. Bo‘g‘inlar yoki so‘z qismlarini birlashtirish:

Bu usulda har bir so‘zning birinchi bo‘g‘ini yoki muhim qismlari olinib, yangi so‘z hosil qilinadi.

kolxoz — kollektiv xo‘jalik

sovxoz — sovet xo‘jaligi

avtobekat — avtobus + bekat

radiouzeli — radio + uzel

Bu so‘zlar birdaniga yangi ma’noli ot sifatida qo‘llanadi.

Ot yasalishi” jarayoni juda murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, bu hodisani juda ko‘p olimlar o‘rgangan. Azim Hojiyev o‘zining maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “O‘zbek tilida so‘z yasalishi jarayoni bevosita so‘z turkumlarining tarkibiy imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa ot yasalishida qo‘shimcha va so‘z birikmasi asosiy vosita hisoblanadi.” Ayub G‘ulomov: “Ot yasalishi – bu faqat grammatik jarayon emas, balki tilning ma’no yaratish qudratidir. Har bir yasama ot o‘zida yangi tushunchani, yangi ijtimoiy ehtiyojni ifodalaydi” - deya ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ot yasalishi — bu mavjud so‘zlardan yangi ot hosil qilish jarayonidir. Bu tilning so‘z boyligini oshiruvchi va yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beruvchi muhim jarayondir. Bu usullar orqali tilda:

- yangi tushunchalar paydo bo‘ladi,
- so‘zlar ixcham va tushunarli ifodalanadi,
- tilda ifoda imkoniyatlari kengayadi.

Ot yasalishi – tilning yangi soʻz yaratish qudratini koʻrsatuvchi eng muhim vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Hojiyev. Oʻzbek tilida soʻz yasalishi. T., 1981.
2. A. Gʻulomov. Soʻz yasashning leksik-semantik asoslari. T., 1990.